



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 setyabr holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **716 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi **1,3 f.p ko'paydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **628 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-avgust oyida Viloyatda 1045 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 57 taga ko'paygan.


Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 639 ta (6,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10742 tani tashkil etgan.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,3 % kamaygan hamda ularning soni 417 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Guliston shahrida (31,6 %), Sirdaryo (15,5%), Sayxunobod (8,7 %) va Yangiyer (7,4 %) tuman shaxarlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,
2018 yilning 1 sentyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Sirdaryo viloyati	10742	100,0	10016	100,0
Guliston shaxri	3364	31,3	3170	32,1
Sirdaryo tumani	1688	15,6	1549	15,3
Sayhunobod tumani	890	8,3	874	8,6
Yangiyer shaxri	808	7,5	737	7,3
Guliston tumani	812	7,6	736	7,4
Mirzaobod tumani	780	7,3	717	7,1
Boyout tumani	813	7,6	750	7,5
Xovos tumani	527	4,9	481	4,8
Oqoltin tumani	426	4,0	400	3,9
Sardoba tumani	390	3,6	373	3,7
Shirin shaxri	244	2,3	229	2,3


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 93,2 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 6,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,2 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,9 % savdoda, 11,9 % sanoatda, 9,2 % qurilishda, 12,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,4 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 1,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-avgust holatiga 1045 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 5,5 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shaxrida (281 ta), Sirdaryo (158 ta), Sayhunobod (103 ta) va Yangiyer shahrida (91 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shaxrida (21 ta), Xovastda (56ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (236 ta), sanoatda (167 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (165 ta) va qurilishda (157 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) va tashish va saqlashda (27 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi savdoda (-0,6 f.p.), tashish va saqlashda (-0,3 f.p.), boshqa faoliyat turlarida (-0,3 f.p ga) kamayganligi, Natijada qurulishda (+0,9 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,2 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,2 f.p.), sanoatda (+0,1 f.p) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.09.2018 y.	01.09.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,3	1,3	0,0
Savdo	25,9	26,5	-0,6
Axborot va aloqa	1,6	1,6	0,2
Sanoat	11,9	11,8	0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12,0	11,8	0,2
Qurilish	9,2	8,3	0,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,5	5,3	0,2
Tashish va saqlash	5,4	5,7	-0,3
Boshqa turlari	27,2	27,5	-0,3

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 sentyabr holatiga 8035 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2724 ta, oilaviy korxonalar – 84 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4915 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 23 tani va boshqalar 289 tani tashkil etadi.



Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 101 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga yoki 22,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 74 tasi qo'shma korxonalar, 27 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Sirdaryo tumani 46 ta (45,5 %), Guliston shaxri 22 ta (21,8 %), Yangiyer shaxri 10 ta (9,9 %) his-salariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xovost tumani 1 ta (1,0 %), Sardoba tumani 2 ta (2,0 %), Guliston tumani 1 ta (1,0 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bi-lan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 sentyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 68 ta (67,2 %), savdoda 11 ta (10,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 8 ta (7,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qurilishda 5 ta (5,0 %), tashish va saqlashda 4 ta (4,0 %), boshqa tarmoqlar 4 ta (4,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,0 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek tashkil etilmaganlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-avgust oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 18 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga ko'paygan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 13 ta, korxonalar yangi tashkil etilgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 sentyabr holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 7990 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 8,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2703 tasi (33,8 %) Guliston shahriga, 1295 tasi (16,2 %) Sirdaryo, 706 tasi (8,8 %) Sayxunobod tumanlari his-salariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 7990 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2586 tasi (32,4 %) – savdoda, 1174 tasi (14,7 %) - sanoatda, 919 tasi (11,5 %) - qurilishda, 1177 tasi (14,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 547 tasi (6,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 541 tasi (6,8 %) - tashish va saqlashda, 148 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, 82 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 819 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-avgust holatiga 925 ta yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,2 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahrida (236 ta), Sirdaryo (141 ta), Sayxunobod (100 ta) va Guliston tumanlarida (60 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (18 ta), Sardoba (46 ta) tumanida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (236 ta), sanoatda (167 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (164 ta) va qurilishda (156 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) hamda tashish va saqlashda (27 ta) tashkil etilgan.



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentyabr holatiga 90 tani tashkil etib, ulardan 84 tasi yoki 93,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **23,3** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari ke- simida qaralganda oilaviy korxonalarining 45,2 % yoki 38 tasi sanoat, 17,9 % yoki 15 tasi savdo, 20,2 % yoki 17 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,5 % yoki 8 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 6,0 % yoki 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
boshlig'i

Nashr uchun mas'ul: **K.Yusupov**
(0367) 225-31-00

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan